

FARHOD MUSAJON QISSALARIDA BOLA RUHIYATI IFODASI

Baxronova Feruza Tohir qizi

Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi boshqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20551800>

Annotatsiya. Adabiyotshunoslik sohasi uchun zamonaviy adabiy tendensiyalarni o‘rganish hamda ularning o‘tmish davrlardan ajralib turadigan o‘ziga xosliklarini belgilash dolzarb ahamiyatga ega. Mazkur maqolada o‘tgan yuz yillik o‘zbek qissachiligi, chunonchi, bolalar adabiyoti rivojiga salmoqli ulush qo‘shgan Farhod Musajonov asarlarida bola timsolining o‘ziga xos xususiyatlari ijodkor tomonidan qay darajada aks ettirilgani tahlil qilingan, adibning milliy so‘z san‘atimizda egallagan mavqeyi atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, prinsip, estetik did, bola ruhiyati, sxematizm, didaktika, xarakter.

Abstract. For literary studies, exploring contemporary literary trends and identifying their distinctive features that set them apart from previous eras is of paramount importance. This article analyzes the extent to which the unique characteristics of the child image are reflected by the author in the works of Farhod Musajonov, who made a significant contribution to the development of twentieth-century Uzbek prose (specifically, children's literature), and comprehensively highlights the writer's status in our national verbal art."

Keywords: children's literature, principle, aesthetic taste, child psychology, schematism, didactics, character.

Ma'lumki, badiiy adabiyotning doimiy va eng muhim obrazlaridan biri sifatida bola obrazi va bolalik tasviri alohida ahamiyatga ega. Bola timsoli umumlashma obraz sifatida o'z ichiga bola obrazlarining tipologiyasi, bola dunyosi, bolani o'rab turgan muhit va bola obrazining ruhiyatini qamrab oladi. Bolalar adabiyotining asosida ham barcha san'at turlari kabi birinchi galda ijodkorning g'oyaviy-estetik maqsadi yotadi. Shu maqsadning ifodasi bolalar adabiyotining o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omildir. "Bolalar adabiyotida tanlangan mavzuning originalligidan ko'ra kitobxonning uni qabul qilishi, tushunishi muhimroqdir" (Egamov, 1976, 39-bet).

XX asr adabiyotida o'zbek qissalaridagi bola obrazi orqali davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-tarixiy muammolari, qahramon ruhiyatining tubsiz qatlamlariga nazar tashlash tamoyili tadrijiy ravishda o'z badiiy ifodasini topdi. Agar asr boshi va o'rtalaridagi bola obrazlarida, asosan, ijtimoiy faollik kuzatilgan bo'lsa, yuz yillik oxirlariga kelib, ularning ichki olami, muhit bilan to'qnashuvdagi ruhiy holatlari tasviri yetakchilik qila boshladi. Ma'lumki, bolalar adabiyoti kuchli tarbiya qurollaridan biri hisoblanadi (Matchonov, 2011, 333-bet). Shuning uchun ham tanqidchilikda bolalarga atalgan qahramonlarni tahlil qilinganda ularning hayotiyli va tarbiyaviyligi haqida birdek fikr yuritish muhim ahamiyatga ega. "Chinakam iste'dod bilan yozilgan har bir adabiyot va san'at asari doimo umuminsoniy manfaatlarni ifoda etadi. Bu ifoda badiiy adabiyotda obrazli tarzda tasvirlanadi" (Qahramonov, 1991, 6-bet).

Yuqoridagi xususiyatlar ifodasini o'zbek bolalar adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, iste'dodli yozuvchi, o'zining uslubiga ega ijodkor Farhod Musajonov ijodida yaqqol ko'rish mumkin. O'zbek bolalar adabiyotining asosiy mavzusini Vatanga muhabbat, beg'ubor bolalik, do'stlik, hunar va ilmga qiziqish kabi mavzular tashkil etadi. Ammo Farhod Musajonovning

“Orzuga ayb yo‘q” va “Bo‘sh kelma, Aliqulov” qissalarida ko‘tarilgan masalalar bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir. Qissalar asosan o‘rta yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallanganligiga qaramay, katta yoshdagi qahramonlar fazilat va qusurlarini ham o‘zida namoyon etadi. Bu asarlarni kattalar ham qiziqish bilan o‘qib chiqishi va o‘zi uchun yangilik kashf etishi mumkin.

“Orzuga ayb yo‘q” qissasidagi Sayfi, To‘lagan, Gulmira, Malohat, Jamila bilan “Bo‘sh kelma, Aliqulov”dagi Sanjar, Shoqayum, Ra‘no, Nodira obrazlari bir-biriga juda o‘xshash qilib tasvirlanganiga qaramay, har ikki qissa bir-biridan ayri muammolarni yoritishga xizmat qilgan. “Adib bolalar xarakteridagi muayyan qusurlarni jonli manzaralarda tasvirlab, ularni qoralaydi.

Muhimi shundaki, yozuvchi qusurlarni qoralaydi-yu, lekin shu qusur egasining o‘zini qoralamaydi, aksincha, uni mehr bilan tasvirlaydi, uning har qanday qusurdan xalos bo‘la olishiga ishonch bildiradi” (Sharafiddinov, 1985, 110-bet).

“Orzuga ayb yo‘q” qissasida Sayfi biroz sho‘x, yolg‘onchi, xayolparast tasvirlansa-da, asar davomida kitobxon uni oilaparvar, mehnatkash, vijdonli, yuragi toza bola sifatida yaqindan taniy boshlaydi. U To‘lagan ismli o‘rtog‘i bilan kinostudiya ochishni, kino suratga olib mashhur bo‘lishni orzu qiladi va ikki do‘st bu yo‘lda ko‘p qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. Pul topish maqsadida qariyalarga yordam berishadi, ammo biror marta ham ulardan pul olishmaydi. Shu o‘rinda yozuvchi bolalar ruhiyatidagi poklik, qalbi tozalikni yorqin tasvirlaydi.

Bundan tashqari davr muammolari, oilaviy muhit, taqdir zarbalarining aynan bola hayoti misolida ochib berilishi yozuvchining katta yutuqlaridan biri sanaladi. Sayfining otasi Rahimaka onasi Muborak opani “bedavo dard”i bo‘lsa ham tashlab ketmaydi (Musajonov, 2005, 48- bet). Qissa davomida kitobxon sadoqatdan kuchliroq tuyg‘u yo‘qligini, bunga erishish uchun oilada ishonch, sevgi-muhabbat yuqori o‘rinda turishini anglab yetadi. Eng muhimi, qissa

qahramonlari bo‘lgan bolalar har qanday vaziyatda ham orzu qilishdan to‘xtamaydi, kelajakka umid va kelgusi maqsadlariga bo‘lgan yuksak ishonch bilan hayotidagi to‘siqlarni birma-bir yengishadi.

“Bo‘sh kelma, Aliqulov” qissasida esa Sanjarning butunlay o‘zgarishini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu qissada ham adibning bola ruhiyatini yaxshi bilishi ko‘rinib turadi. Aliqulov har kuni darsga qanday qilib “2”dan qutulib qolish usullarini o‘ylab keladi. Sinfdozlari orasida “Toyloq”, “Bo‘taloq” degan laqablar bilan mashhur. “...lekin Aliqulov yomon bola emas, unda ham kollektivchilik tuyg‘usi bor, u ham adolatni yaxshi ko‘radi, ishbilarmon, serg‘ayrat, mehribon, o‘qituvchilarini zimdan hurmat qiladi, hatto ularni ranjitib qo‘yganida, o‘zicha vijdoni qiynalib, ezilib yuradi. Aliqulovning bu sifatleri turli ishlar jarayonida sekin-asta ochila boradi. U bolalar bilan birga temir-tersak yig‘ishda o‘zini ko‘rsatadi. 8-martda ukasi bilan birgalikda onasini tabriklab, ko‘nglini ko‘taradi. Shu tarzda Aliqulov obrazi sekin-asta ochila boradi...” (Sharafiddinov, 1985, 116-bet). Har kuni “ikki” qo‘yishdan charchagan ona tili o‘qituvchisi va sinf rahbari Nasiba opa Aliqulovni oldiga chaqirib, maktabda majlis bo‘lgani, unda Sanjar sababli sinfi eng oxirgi o‘rinni olganini tushkun kayfiyatda, qalbida alam bilan aytib beradi. Shu voqeadan so‘ng Sanjardagi salbiy xususiyatlar ijobiylashadi va kitobxon uning kelajagiga umid bilan qaray boshlaydi. Bu qissada ham adib xarakterlar ta‘sirida hayotiylik prinsipiga qat‘iy amal qiladi.

“Farhod Musajonov kitobxonning ortidan ergashmaydi, balki undan oldinroq yurishga intiladi. U o‘rtacha kitobxon didiga moslashmaydi, balki uning estetik didini tarbiyalashga, shakllantirishga harakat qiladi. Farhod Musajon bolalar yozuvchisi sifatida hikoyalari va qissalari bilan qator yorqin obrazlar va unutilmaydigan, o‘ziga xos xarakterlar yaratdi. Uning obrazlarida bolalar o‘zlariga yaqin, o‘zlari yaxshi biladigan odamlarni ko‘radi, ulardan ibrat oladi. Uning ijodi

munozaraviy xarakterga ega – u ko‘pgina asarlarda hali butkul yo‘qolib ketmagan sxematizmga, didaktikaga qarshi. U bolalarga ishonmaslikka, mensimaslikka qarshi.

Uning asarlaridagi haqqoniylik va samimiyat bolalarga nisbatan ulkan muhabbatdan, ular qarshisida o‘z burchini, mas’uliyatini chuqur tushunishdan tug‘ilgan” (Sharafiddinov, 1985, 117-bet).

Muxtasar qilib aytganda, Farhod Musajon qissalarini o‘rganar (tahlil qilar) ekanmiz, ijodkorning bolalar ruhiy olamini naqadar chuqur anglay olgani va buni o‘z asarlarida aks ettirganini payqash qiyin emas. Adibning biz yuqorida o‘rgangan “Bo‘sh kelma, Aliqulov”, “Orzuga ayb yo‘q”, “Bir qultum buloq suvi” kabi asarlarida yozuvchilik iste’dodi to‘la-to‘kis namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Egamov, X. (1976). Bolalar dunyosi. Toshkent: Yosh gvardiya.
2. Qahramonov, Q. (1991). Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti. Toshkent: Fan.
3. Sharafiddinov, O. (1985). Go‘zallik izlab. Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti.
4. Musajonov, F. (2005). Bo‘sh kelma, Aliqulov. Toshkent: Sharq.
5. Matchonov, S. (2011). Bolalar adabiyoti: san‘atmi yoki tarbiya. Toshkent: Turon-Iqbol.